

# THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

VOLUME-3, ISSUE-4

## МАКТАБГАЧА ЙОШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУСИҚИЙ ФАОЛИЯТИ

Xamidova Mohigul Ashurmuxamadovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti 1-bosqich magistranti

Nurullayev Farrux Gaybulloevich

Bux D.P.I. Musiqa va tasviriy san'at kafedrasi dotsenti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif moshkilotlarida bolalarga qaratilgan musiqiy faoliyat haqida fikr yuritilgan. Bolalarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ularda o'z fikrlarini bemalol bayon qilish ko'nikmalarini shakllantirdi.

**Tayanch so'zlar:** musiqa, davr, bola, ashula, qo'shiq, ta'lif, taebiya, mashg'ulot, faoliyat, san'at.

### МУЗЫКАЛЬНАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ

Xamidova Mohigul Ashurmuhamedovna

магистрант I ступени Бухарского государственного педагогического института

Nurullaev Farrukh Gaybulloevich

Бух Г.П.И. Доцент кафедры музыки и изобразительных искусств

**Аннотация:** В данной статье рассматривается музыкальная деятельность, направленная на детей в дошкольных образовательных учреждениях. Формирование у детей умений анализировать средства выразительности и форму музыкального произведения сформировало у них умения свободно выражать свои мысли.

**Ключевые слова:** музыка, период, ребенок, песня, песня, образование, урок, тренировка, занятие, искусство.

### MUSICAL ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN

Xamidova Mohigul Ashurmuhamedovna

1st level master's student at Bukhara State Pedagogical Institute

Nurullaev Farrukh Gaybulloevich

Bukh S.P.I. Associate Professor of the Department of Music and Fine Arts

**Abstract:** This article discusses musical activities aimed at children in preschool educational institutions. Forming in children the ability to analyze means of expression and the form of a musical work has formed their ability to freely express their thoughts.

**Key words:** music, period, child, song, education, lesson, training, activity, art.

Ulug' ajodolarimiz o'z asarlarida barkamol shaxs tarbiyasi va inson aql-zakovati shakllanishida musiqa ilmining o'rni muhim ekanligini aytib o'tishgan. Bu sohaning o'ziga xos «sho'ba»lari ichida musiqa madaniyati tarbiyasi san'atining ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati yuqori baholangan. Shu bois ham ilm-fan, madaniyat va san'at sohasida jahonshumul e'tirof qozongan allomalar (Abu Nasr Forobi, Abdulqodir Marog'iy, Al Kindiy, Abdurahmon Jomiy, Ibn Sino, Darvesh Ali Changiy, Alisher Navoiy) musiqaga ham ilm sohasi, ham san'at, ham tarbiya vositasi sifatida alohida ehtirom bilan qarashgan, uning turli muammolariga oid yirik asarlar, risolalar yaratgan. Bu asarlar musiqiy-nazariy bilimlarning tarixiy negizi sifatida bugungi kunda ham o'z ilmiy, tarbiyaviy nufuzini yo'qotgan emas.<sup>1</sup> Biroq har qanday sohada bo'lgani kabi musiqiy ta'linda ham shaxsni shakllantirishning zamonaviy talablari mavjud bo'lib, u har bir ijtimoiy davrning ta'limga buyurtmasi, ehtiyoji sifatida kun tartibiga chiqadi.

<sup>1</sup> Nurullayev F.G. Bolalarning musiqiy ta'limi . Darslik. B.:Kamolot. 2022.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-4

Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchisi shaxsini shakllantirishda qo’shiqlar o’rgatish texnologiyasining o’rni muhim.

Musiqa mashg’ulotlarida qo’shiq kuylash bolalarga ijobiy ta’sir etibgina qolmay, ularning musiqiy didi va musiqiy dunyoqarashi shakllanishiga ham samarali ta’sir qiladi. Shu bois maqbul mazmun va metodikada berilgan musiqiy bilimlar majmuasi bolalarda musiqaga barqaror qiziqishni tarbiyalaydi, muhimi, ular musiqani: janrlarni, xalq musiqasi va mumtoz musiqani ajratishga o’rganadilar.

Tadqiqot natijalari bolalarning qiziqish bilan qo’shiq kuylab, musiqa tinglab, kompozitorlar hayoti bilan tanisha boshlaganliklarini ko’rsatdi. Hatto avvaliga musiqa madaniyatini mashg’ulotlariga e’tiborsizlik bilan qaragan bolalar ham oxir-oqibatda musiqa mashg’ulotlariga ko’tarinki ruhda, biror-bir yangilikdan xabardor bo’lish niyatida kela boshladilar.

Bolalarda musiqa mashg’uloti tarkibidagi turli xil faoliyatlarga bo’lgan qiziqish va intilish kuchaydi. Ko’pchilik bolalarda musiqa tinglash, qo’shiq kuylash, ritmik harakatlar bajarish jarayonlariga savodli, ya’ni ongli ravishda yondashish malakalari shakllandı.

Bolalarda musiqiy asarning ifoda vositalari va shaklini tahlil qilish malakasini shakllantirish ularda o’z fikrlarini bemalol bayon qilish ko’nikmalarini shakllantirdi.

Musiqa mashg’ulotida yangi pedagogik texnologiyalarni qo’llash bolalarning musiqiy bilimlarga, jumladan, musiqa savodiga qiziqishlarini kuchaytirdi. Bolalar endilikda musiqiy boshqotirmalarni bemalol yechadigan, notalarni yaxshi biladigan, tovush va uning xususiyatlarini anglaydigan, musiqa ifoda vositalari haqida aniq tushunchalarga ega bo’ldilar.

Tajribalar mashg’ulotlarning samaradorligi ularning to’g’ri uyushtirilishiga bog’liq ekanligini ko’rsatdi. Musiqa «til»i hamma va barchaga tushunarli hamda yaqin. Shuning uchun u insonlarning ruhiyatini ko’tarish, quvonch va rohat baxsh etish bilan birga, o’sib kelayotgan yosh avlodni shaxs sifatida shakllantirishda benazir yordamchidir.

Bolalar tarbiyasida qo’shiq kuylash faoliyati yetakchi o’rin egallaydi. Bu faoliyat turi bolalarga boshqa faoliyat turlariga nisbatan yaqin va tushunarlidir. Bolalar qo’shiq kuylashni sevadilar. Kuylash bolalar ijrochiligi faoliyati ichida yetakchi faoliyat turi bo’lib, u bolalarning musiqiy-estetik tarbiyasida muhim o’rin egallaydi. Yaxshi qo’shiq bolani quvontiradi, har tomonlama kamol toptiradi va tarbiyalaydi.<sup>2</sup> Cholg’u kuylaridan farqli o’laroq qo’shiq kuylash kuchli emotsiyonal ta’sir kuchiga ega. Chunki qo’shiqda matn va musiqa badiiy birligi namoyon bo’ladi. Qo’shiq kuylash bola shaxsi tarbiyasiga har tomonlama ta’sir ko’rsatadi. Qo’shiq inson aqliy kamolotining o’sishiga, dunyoqarashining kengayishiga, atrof-olam haqidagi tasavvurlarining boyishiga xizmat qiladi.

Qo’shiq kuylash jarayonida ular musiqani chuqurroq idrok etadilar, o’z kechinma va his tuyg’ularini faolroq ifodalaydilar. Qo’shiqning matni bolalarga musiqa mazmunini tushunishga va kuyni osonroq o’zlashtirishga yordam beradi. Biror-bir cholg’uda ijro etilgan kuyga nisbatan ovozda ijro etilgan kuyni bolalar yaxshiroq idrok etadilar.

<sup>2</sup> Nurullayeva N.K. Nurullayev F.G “Maktabgacha yoshdagি bolalarga musiqiy-estetik tarbiya berishda ilg’or pedagogik texnologiyalarning o’rni”. Monografiya. Buxoro “Kamolot”nashriyoti 2022-yil. 90 bet.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-4

Qo'shiq kuylash jarayonida bolalarda musiqiy qobiliyat rivojlanadi: musiqiy eshitish qobiliyati, musiqiy xotira, ritm hissi, shuningdek, qo'shiq kuylash musiqiy qobiliyatlaridan: metr va ritm hissi, musiqiy eshituv, lad hissi rivojlanadi.

Jamoa bo'lib kuylash faoliyati o'quvchilarning musiqiy o'quv qobiliyati hamda ijrochilik malakalarini rivojlantirish uchun zarurdir. Guruhda jamoa bo'lib kuylash jarayonida o'quvchi o'z ovoz ijrosini boshqarishni, ustozlari ijrosini eshitib kuzatishni hamda ular bilan bahamijihat jo'rnovozlikda kuylashni o'rganadi, ularda jamoaviy birlik, uyushqoqlik, o'zaro do'stlik hislari tarbiyalanadi.

Qo'shiqlarni o'rganish bolalarda nafaqat musiqiy savodxonlikni, balki musiqiy dunyoqarash, musiqiy did, musiqiy tafakkur va shu kabi sifatlarni shakllantirishga xizmat qilishi amalda o'z isbotini topgan.

Bolalar mакtabgacha ta'lrim muassasasiga kelgan ilk kunlaridanoq ularning san'atga, ayniqsa, musiqaga intilishi va qiziqishi yuqori bo'ladi. Shuning uchun musiqa mashg'ulotlarida bolalarning shaxs sifatida shakllanishiga alohida e'tibor qaratish lozim. Bu rahbarning mutaxassis, o'z sohasining ustasi sifatida bilimdonligi va ijodiy barkamolligiga bog'liqdir.

Qo'shiq kuylash bolalarga ko'tarinki kayfiyat bag'ishlaydi. U bolalarni nafaqat ruhiy, balki jismoniy jihatdan rivojlantiradi. Chunki bola kuylayotganda og'iz, burun, nafas yo'llari, ko'krak qafasi, umuman olganda, barcha a'zolari ishtirot etadi. Bola kuylash jarayonida erkin va to'g'ri o'tirishi talab etiladi. Maktabgacha yoshdagи bolalarda qo'shiqchilik ko'nikmalarini tarbiyalash yordamida kuylash jarayonida nafas yo'llari ham rivojlanadi.

Bolalarning kuylashi jarayonida matn va musiqa uyg'unligi bilan birga matn va kuyga ham e'tibor beriladi. Qo'shiqda matn va musiqiy kuy birikib, tinglovchiga emotsional ta'sir ko'rsatib, turli his-tuyg'ularni uyg'otadi. Bu ta'sirchanlik bola tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

Bola go'daklik davridan qo'shiqning ma'nosi va mazmunini tushunmasa-da, unga o'z hissiy munosabatini bildira oladi. Bola rivojlangani sari, nutqi va hayot davomida olgan ko'nikmalari qo'shiqni, umuman, kuyni tushuna olishiga yordam beradi.

Qo'shiq kuylash bola ruhiyatiga ta'sir qilish barobarida, uning jismoniy o'sishi va rivojlanishida ham katta ta'sir ko'rsatuvchi omildir. Jamoa bo'lib kuylash mashg'ulotlarida o'quvchilarning diqqat-e'tibori, ongliligi va faolligi oshadi, musiqiy xotira yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarni ijro etganda, zavqlanish hissi paydo bo'ladi. Qo'shiqning so'z ma'nosini va musiqa ohangini chuqur idrok etadi va asar mazmuni orqali hayotni o'rganadi.

Qo'shiq kuylash bolalarning nutqi rivojlanishiga ham zamin yaratadi. Qo'shiq so'zлari cho'zib ijro etilganligi tufayli bolalar yangi so'zлarni bo'g'inlab, xatosiz o'rganadilar. Musiqiy rahbar va tarbiyachilar so'zlarning to'g'ri ijro etilishini tekshirib boradilar.

Qo'shiq kuylash jarayoni bolalarni umumiy kayfiyat bilan birlashtiradi, ular hamkorlikda faoliyat yuritishga o'rganadilar. Ular shoshib ketayotgan yoki orqada qolib ketayotgan o'rtoqlarini eshitadilar va ularni bir xil sur'atda kuylashga chaqiradilar.

Qo'shiq kuylash – musiqiy tarbiyaning asosiy vositasi. U boshqa faoliyatlarga nisbatan bolalar uchun juda yaqindir. Qo'shiq kuylab, ular musiqani yanada faolroq idrok etadilar. Qo'shiq matni esa mazmunan qo'shiq kuyini anglashga yordam beradi.

Kuylash faoliyatida bolalarda musiqiy qobiliyatlar: eshitish, xotira va ritm hissi rivojlanadi. Kuylash bolaning nutqini rivojlantiradi.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-4

Jamoa bo‘lib kuylaganda bolaga kuy qo‘sishq matniga nisbatan kuchliroq ta’sir qiladi. K.D.Ushinskiy ta’kidlaganidek: “Qo‘sishqda, ayniqsa, xor jamoasida qalbni tarbiyalovchi, uni jumbushga keltiruvchi hissiyotlar mavjud”.

Ko‘p hollarda o‘g‘il bolaning shaxdam yurib marshni kuylayotganini, qiz bolaning esa qo‘g‘irchoqni allalashini kuzatishimiz mumkin.

Bolaning ovozi — tabiiy cholg‘u, chunki bu cholg‘u unda yoshligidan mavjud. Shuning uchun ham uning hayoti davomida hamroh bo‘ladi va turli o‘yinlarda foydalanadi. Undan tashqari qo‘sishq bola hayotining boshqa faoliyatlarida ham qo‘llanadi. Masalan, raqs, xorovod, bolalar cholg‘ularida ijro etilganda.

Qo‘sishq — bu bolaning dunyoqarashini kengaytirib, yorqin obrazli tasavvurga ega bo‘lishga yordam beradi. Qo‘sishqlarda tabiatga, Vatanga muhabbat, kattalarga, ajdodlarga hurmat o‘zaro munosabatlarni yaxshilash va boshqa tarbiyaviy axloqlarni o‘stirishga yordam beradi.

Qo‘sishq o‘rgatish jarayonida bolalardan katta aqliy mehnat talab etiladi. Unga yonidagi bolani eshitish, uning qo‘sishq iga o‘z munosabatini bildirish, musiqiy jumلالарни bir-biri bilan taqqoslash, fortepiano jo‘rligini tinglay olish, qo‘sishqning garmonik va melodik tizimini eshitish va ijro sifatini baholash kabi bilimlar o‘rgatiladi.

Qo‘sishq bola organizmiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatadi. Masalan, nutqini o‘stiradi, ovoz apparatlarini rivojlantiradi, qo‘sishqchilik nafasini shakllantiradi. Bolada qo‘sishq kuylash jarayonida, asosan, musiqiy hissiyot, emotsiyonal ta’sir, musiqiy eshituv (slux), ritm hissi kabilalar rivojlanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Nurullaev F.G. The role of folklore in the raising of children. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 12, 2020 Part III ISSN 2056-5852.
2. Нуруллаев Ф.Г., Композиционный и исполнительский процесс в музыке // «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 576-581.
3. Нуруллаев Ф.Г. Импровизаторское творчество в XX веке по сфере музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 582-587.
4. Nurullayev F.G. FORMATION OF AESTHETIC EDUCATION OF CHILDREN ON THE EXAMPLE OF BUKHARA FOLKLORE SONGS. Euro-Asia Conferences 1 (1), 34-36.
5. Nurullayev F.G. METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 1 (01), 83-88.
6. Nurillaev Farrukh Gaynullaevich- The technology of organizing the aesthetic education of students by means of folk songs. European Chemical Bulletin (**Scopus-Q3**) ISSN2063-5346. 2023, 12 (Special Issue7), 1987-1996
7. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Музыкально-историческое наследие центральной Азии (психологический настрой армии Темура). Психология XXI столетия, 18-20 марта 2020 года С. 115-118.
8. Nurillaev Farrukh Gaynullaevich **Results of Experimental Work on Teaching Bukhara Folk Songs in Music Education and their Effectiveness**. International Journal of Trend in Scientific Research and Development (IJTSRD) Special Issue on Modern Trends in Science, Technology and Economy.P.106-109.Available Online: www.ijtsrd.com e-ISSN: 2456 – 6470

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-4

9. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся. Научно– методический журнал «Проблемы педагогики» №3(48). Москва 2020. С.15-17.
10. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Формирование эстетического воспитания детей на примере Бухарских фольклорных песен. «MODERN SCIENTIFIC CHALLENGES AND TRENDS» collection of scientific works of the international scientific conference Issue 4(260 Warsaw, Poland 2020. P. 139-141.
11. Nurullayev F.G., Madrimov B.K., Rajabov T.I. Teaching Bukhara Children Folk Songs in Music Lessons as an Actual Problem. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol.24, Issue 04, 2020 P. 6049.
- 12 Нуруллаев Ф.Г., Случайный выбор качественных характеристик материала по музыки или порядок его изложения в процессе создания музыки или исполнения опуса//«SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal. ISSN: 2181-1601, 2021.- pp. 588-593.
13. Нуруллаев Ф.Г. Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш. Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий-назарий ва амалий масалалари. Республика илмий-назарий анжуман материаллари. 2020 йил, 6 ноябрь. Бухоро, 2020- Б. 107-111.
14. Нуруллаев Ф.Г. Из истории смычковых инструментов у мастеров Амати Николо, Гварнери и Страдивари. Материалы международного научно-творческого форума. Часть 1-Челябинск, 2016.-С.158-159
15. Нуруллаев Ф.Г. Особенности и условия развития творческих музыкальных способностей детей. Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. г. Ярославль, Выпуск №17, 2018. – С.125-128.
16. Nurullayeva N.G., Nurullaeva N.K., Nurullaev B.G. Role and significance of folklor music in the upbringing of children of preschool age. Academicia An International Multidisciplinary Research Journal. Vol.10, Issue 10, October 2020.
17. Nurullayev F.G. Узлуксиз таълим тизимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатишнинг ўрни ва аҳамияти// O’zbekiston Milliy Universiteti xabarlarli, Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 2021-yil 6-son.- Toshkent. B.177-186.
18. Нуруллаев Ф.Г., Музыкальный процесс в западной музыке// «SCIENTIFIC PROGRESS» Scientific Journal ISSN: 2181-1601, 2021. - pp.570-575.
19. Нуруллаев Ф.Г., Нуруллаева Н.К. Роль фольклорных песен в воспитании учащихся// Научно – методический журнал «Проблемы педагогики». №3 (48). - Москва 2020.- С.15-17.
20. Nurullayev F.G The Role and Significance of Folk Music in Raising Children. European Journal of Innovation in Nonformal Education(EJINE) Volume 2| Issue 5| ISSN:2795-8612 Accepted 14 May2022.
21. Нозима Құдратовна Нуруллаева. Подготовка будущих учителей музыки к методически грамотной профессиональной деятельности. Science and education scientific journal, issn 2181-0842, volume 3, issue 1, january 2022.975-981.
22. Нуруллаев Ф.Г., Норова Ш.У. Психология музыкальных дидактических игр на интегрированных занятиях// Вестник интергративной психологии. Журнал для психологов. Выпуск №17, 2018. – С.295-299.

## THE MULTIDISCIPLINARY JOURNAL OF SCIENCE AND TECHNOLOGY

### VOLUME-3, ISSUE-4

23. Нуруллаев Ф.Г. [Содержание обучения бухарским народным песням в музыкальном образовании](#)// Academy, № 3 (66), 48-50, ООО «Олимп».
24. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Моделирования педагогических с музыкальным уклоном действие объектов через математический аппарат в педагогике// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.589-595.
25. Фаррух Гайбуллоевич Нуруллаев. Интерактивные уроки музыки по программы STEAM// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.595-602.
26. Нодира Каримовна Нуруллаева. Методические аспекты музыкального образования, особенности обучения народных песен в 5-7 классах// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.957-963.
27. Бобиршох Файбуллоевич Нуруллаев. Музыкальный ракурс изучаемого объекта в особенности обучения фольклора// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.963-969.
28. Нигора Каримовна Нуруллаева. Теории музыки основа - основа музыкального формирующих принципов и правил произведения// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.969-975.
29. Мехринисо Бобиршох кизи Нуруллаева, Нодир Джалолович Ядгаров. Мировые шедевры живописи великих художников - маятник в развитии художественного искусства// SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL, ISSN 2181-0842, VOLUME 3, ISSUE 1, JANUARY 2022.981-987.
30. F. Nurullayev. "Musiqa ta'limida Buxoro folklor qoshiqlarini orgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari"- (PhD) Diss.ishi. 2021y